



**Ta'limni rivojlantirish  
respublika ilmiy-metodik  
markazi**

# **Boshlang'ich ta'limda geometrik shakllar tushunchasini singdirishda diqqatni boshqarish san'ati**



**Mamaraimova Malika Onarbayevna**  
Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani 4-umumta'lim  
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

# Kirish


Bugungi ta'limda eng katta muammo – o'quvchi diqqatini ushlab turish.

Ayniqsa matematika darslarida geometrik shakllar mavzusi abstrakt bo'lgani uchun o'quvchilar tez chalg'iydi. Shuning uchun o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki diqqatni boshqaruvchi ham bo'lishi kerak. Boshlang'ich ta'lim – butun ta'lim tizimining poydevori. Bu bosqichda o'quvchida:

- matematik tafakkur
- kuzatuvchanlik
- mantiqiy fikrlash shakllanadi.

## **Geometrik shakllar esa bolaga:**

- fazoviy tasavvur
- solishtirish
- tahlil qilish
- ko'nikmalarini beradi.



# Mavzuning dolzarbligi

## Bugungi bolalar:

- telefon
- gadjet
- televizor



- tezkor axborot ta'sirida uzoq vaqt diqqatini jamlay olmaydi.

Shuning uchun o'qituvchi: darsni qiziqarli harakatli vizual qilishi kerak.

Agar bola shaklni faqat kitobda ko'rsa — u eslab qoladi.

Agar uni ushlasa va yasasa — u tushunadi.

Agar uni hayotda topsa — u unutmaydi.




# Geometriya

**Geometriya** — bu faqat matematika bo‘limi emas.

**Geometriya** — atrofimizdagi tartib, uyg‘unlik va go‘zallikni tushunish ilmi.

Har bir buyum, har bir bino, hatto tabiatning o‘zi ham geometrik shakllarga asoslanadi.

Shuning uchun boshlang‘ich sinfda geometrik shakllarni o‘rgatish — faqat shakl nomini o‘rgatish emas, balki dunyoni ko‘ra olishni o‘rgatishdir.



## Geometriyaning paydo bo‘lishi:

Geometriya qadimgi Misr va Babil sivilizatsiyalarida paydo bo‘lgan.

Nil daryosi har yili toshib, yer chegaralarini yuvib ketar edi.

Shunda odamlar yana yerlarni o‘lchashga majbur bo‘lishar edi.

Shu jarayon geometriyaning rivojlanishiga sabab bo‘lgan.

Keyinchalik, yunon olimi Evklid geometriyani ilm sifatida tizimlashtirdi.



# Boshlan'ich sinflarda geometrik shakllarni o'rgatishda yuzaga keladigan muammolar

O'quvchilar geometrik shakllarni bir-biri bilan chalkashtirib yuborishi mumkin. Shakllarning nomi, xususiyatlari va farqlarini eslab qolish ularga qiyinchilik tug'diradi. Bu holat o'quvchi diqqatining pasayishiga sabab bo'ladi. Natijada bilim samaradorligi kamayadi.

## O'quvchilar ko'pincha:

- kvadrat va to'rtburchakni farqlay olmaydi
- uchburchak turlarini chalkashtiradi
- shakllarni real hayot bilan bog'lay olmaydi

**Bu muammolar ko'pincha nazariy tushuntirish ustun bo'lganda yuzaga keladi.**



**Boshlang'ich ta'limda** geometrik shakllar tushunchasini singdirishda, diqqatni boshqarishda o'qituvchidan yuksak mahoratni talab qiladi. Avvalo o'qituvchi mavzuga kirib borishda tushunchalarni real hayot bilan bog'lay olishi muhim ahamiyatga egadir.

### **Geometriya — tabiat tili**

Tabiatga diqqat bilan qarasaq, undagi barcha shakllar geometriyaga asoslanganini ko'ramiz.

Masalan: **Quyosh** — doira

**Asal ari uyasi** — oltiburchak

**Qor parchasi** — mukammal simmetriya

**Daraxt shoxlari** — geometrik tartib

Demak, tabiatning o'zi ham geometrik qonuniyatlar asosida yaratilgan.



## Hayotimizdagi geometrik shakllar



Har kuni ishlatadigan buyumlarimiz ham geometrik shakllarga ega:

kitob – to'rtburchak

- soat – doira

- yo'l belgisi – uchburchak

- futbol to'pi – ko'pburchaklar



Demak, geometriya — hayotning o'zidir.

**Agar bola buni tushunsa, u geometriyani qiziqish bilan o'rganadi.**

## Geometriya va arxitektura

Dunyodagi eng mashhur binolar geometriya asosida qurilgan:

- piramidalar

- minoralar

- ko'priklar

- masjid gumbazlari



# Geometrik shakllarni o'rgatishda samarali metodlar:

O'yinli metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun eng samarali hisoblanadi. Amaliy mashqlar, ya'ni chizish, kesish va solishtirish orqali o'quvchi bilimini mustahkamlaydi. Vizual materiallar tushunchalarni aniqroq ifodalashga yordam beradi. Bu metodlar orqali o'quvchi faol bo'ladi.

## Mantiqiy va tanqidiy fikrlash topshiriqlari:


Geometrik shakllarni o'rganishda o'quvchilarda nafaqat bilim, balki mantiqiy va tanqidiy fikrlash ham rivojlanishi kerak.







Bunday topshiriqlar o'quvchini:

- solishtirishga
- tahlil qilishga
- xulosa chiqarishga o'rgatadi.



Agar o'quvchi faqat shakl nomini bilsa — bu bilim.

Agar u shakllarni solishtira olsa — bu tafakkur.





**Kim chaqqon?**



# Amaliy misol metod: Jonli geometriya

“Jonli geometriya” — bu o‘quvchilar o‘z tanasi orqali geometrik shakllarni hosil qiladigan faol metoddir.

Bu metod orqali o‘quvchi geometrik shaklni nafaqat ko‘radi, balki o‘zi yaratadi va his qiladi.

Amaliy bajarilish bosqichlari:

## 1-bosqich. Tayyorlov

O‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘ladi.

Masalan:

3 o‘quvchi

4 o‘quvchi

5 o‘quvchi



## 2-bosqich. Shakl yasash

O‘qituvchi topshiriq beradi.

Masalan: 3 o‘quvchi qo‘l ushlab uchburchak hosil qiladi.

4 o‘quvchi turib kvadrat hosil qiladi.

5 o‘quvchi beshburchak hosil qiladi.

## 3-bosqich. Tahlil

O‘qituvchi savollar beradi:

- nechta tomon bor?
- nechta burchak bor?
- bu shaklning farqi nimada?

O‘quvchilar o‘zlari javob beradi.

## Metodning afzalligi:

Bu metod orqali: diqqat oshadi, harakat orqali o‘rganish yuz beradi. O‘quvchi faol ishtirok etadi va shaklni yaxshiroq eslab qoladi.



# Amaliy misol

O'quvchilarga atrof-muhitdan geometrik shakllarga o'xshash buyumlarni topish topshiriladi. Ushbu mashq o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Harakat va fikrlash birgalikda amalga oshiriladi. Natijada diqqat mustahkamlanadi.



# Xulosa

Boshlang'ich ta'limda geometrik shakllarni o'rgatishda diqqatni boshqarish muhim hisoblanadi. O'yinli, ko'rgazmali va amaliy metodlar o'quvchini darsdan chalg'itmaydi.

Qiziqish bilan o'rganilgan bilim uzoq vaqt saqlanadi. Shunday ekan, o'qituvchi ijodkor va faol bo'lishi zarur.



E'tiboringiz uchun rahmat!

